

PSIXOANALIZ

*Toshkent amaliy fanlar Unversiteti
"Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi*

Ilmiy rahbar: Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna

Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi

2-bosqich talabasi: Ernazarova Munisa

Annotatsiya; Ongsizlik sohasidagi "kompleks"larni aniklash va ularni anglashga yordamlashishdan iborat. Ushbu ta'limot namoyandalari shaxsning ichki ixtiloflarini ochib berish uchun "Edip kompleksi"ni yaratdilar. Ularning mulohazasicha, instinktiv mayllar o'z quvvati va faolligini saklagan holda insoniyat madaniyati va shaxs faoliyati mahsulining har xil shakllariga kirib ("sublimatsiyalashib"), ongsizlik holatidan turib inson xulq-atvorini boshqarishda ishtirok qilaveradi. Psixoanalizda ongsizlik bilan onglilik o'rtasidagi qaramaqarshi munosabatni mutlaqlashtirish uchraydi, buning natijasida ularning o'zaro bir-birini to'ldirish imkoniyati rad qilinadi.

Kalit so'zlar; shaxs, aggresiya, regresiya, sublimatsiya, proyeksiya, deviant, katarsis, Intellektualizatsiya

Psixoanaliz {psixo... va analiz) — psixoterapiya metodi va Zigmund Freyd tomonidan rivojlantirilgan psixologik ta'limot. Ongsiz psixik jarayonlar va motivatsiyani diqqat markaziga qo'yadi. Inson xulqi asosini lazzat olish (libido)ga nisbatan, ayniqsa, ilk bolalikda paydo bo'lgan seksual (jinsiy) mayl tashkil qiladi degan g'oyani ilgari surib, odam xulqidagi ijtimoiylik, onglilikni inkor etadi. Ongdan unga muvofiq kelmaydigan (asosan, seksual) mayllar va ruhiy kechinmalarni siqib chiqarish psixoanalizda har xil nevrozlar va turli patologik hodisalar (unutish, yanglish harakatlar va hokazolar)ning asosiy manbai sifatida qaraladi. Psixoanaliz nazariyasiga ko'ra, 3 xil psixik instansiyalar hukm surishi mumkin: g'ayrihuuriy "U" (id) — mayl doirasi; turli himoya vositalari bilan "U"ning impulyelarini cheklovchi huuriy "Men" (Ego); "O'ta-Men" (Super-Ego) — ijtimoiy taqiqdar, qonun tusiga kirgan majburiy tartib-qoidalar. Freydning fikricha, "Men" reallik tamoyiliga asoslangan holda inson psixikasida harakatlanuvchi qarama-qarshi kuchlarni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Inson o'zining qadimgi ajdodlaridan irsiy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir. Instinktiv mayllar dastavval jinsiy instinkt va o'zini himoya qilishga intilish instinkti tarzida yuzaga keladi. Lekin jamiyat shaxsni ko'p jihatdan cheklab qo'yadi, uning instinktlari va mayllari "senzura"dan o'tkaziladi. Buning natijasida o'zining aksariyat instinktlari va mayllarini to'xtatish, taqiqlashga majbur bo'ladi. Instinktiv mayllar uning shaxsiyatiga tegadigan ruhiy holat

sifatida ongli hayotidan siqib chiqariladi, lekin yo‘qolib ketmaydi, faqat ongsizlik sohasiga o‘tkazib yuboriladi, xolos.

Z.Freyd dastavval onglilik, yolg‘onchilik va ongsizlikdan iborat psixikaning uch bosqichini tadqiq etdi. Oldingi ikki bosqichdan farq qiluvchi psixik darajani (lotincha *instantia* – bevosita yaqinlik) senzura deb atadi. Odatda, senzura ikkita funksiyani bajaradi: 1) inson tomonidan o‘zining shaxsiy his-tuyg‘ulari, mulohazalari va xohishlarini muhokama qiladi, ularni ongsizlik holatidan siqib chiqaradi; 2) onga yorib kirishga intiluvchi faol ongsizlikka qarshilik ko‘rsatadi.

Men ushbu kitobimda shu davrgacha (o‘ylaymanki, bundan keyin ham) o‘zining psixoanaliz ta‘limoti bilan butun dunyo ilm ahlini hayratga solib kelayotgan olim Zigmund Freyd haqida qisqacha ma‘lumot berayotganimdan xursandman.

Mening maqsadim bu olim haqida kitob yozish edi. Bu fikr 1997 yili qo‘limga “Psixologiya bessoznatel’nogo” kitobi tushib qolgandan so‘ng paydo bo‘lgan. Zigmund Freydning psixoanaliz ta‘limotini o‘qidim-u, unga bog‘lanib qoldim. Uning ishlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishni ham o‘ylab ko‘rdim. Biroq o‘sha paytlari doktorlik dissertatsiyasi ustida ish boshlagan edim.

Z.Freyd shaxs tuzilishining yangi nazariyasini taklif etdi. Bu nazariya uch xil psixik instansiyaning hukm surishi to‘g‘risidagi farazni asoslashga qaratildi: “U” – lazzatlanish, rohatlanish tamoyiliga bog‘liq bo‘lgan instinktiv mayllarni qamrab oladi; “Men” (Ego) – tashqi olam bilan bilvosita aloqaga kirituvchi psixologik instansiya; “Mendan yuqori” (super-Ego) o‘z ichiga ijtimoiy taqiqlar, qonun tusiga kirgan majburiy tartib-qoida va ideallarni qamrab oladi. Uning fikricha, “Men” (Ego) reallik tamoyiliga asoslangan holda inson psixikasida harakatlanuvchi qarama-qarshi kuchlarni muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi. Z.Freydning ko‘rsatishicha, inson faolligi qadimgi avlod-ajdodlaridan nasliy yo‘l orqali o‘tgan instinktiv mayllar ta‘siri bilan belgilanadi. Instinktiv mayllar, dastavval, jinsiy instinkt va o‘zini himoya qilishga intilish instinkti tarzida yuzaga keladi. Lekin jamiyat shaxsni ko‘p jihatdan cheklab qo‘yadi, uning instinkt va mayllarini “senzura”dan o‘tkazadi. Natijada shaxs aksariyat instinkt va mayllarini jilovlashga, taqiqlashga majbur bo‘ladi. Instinktiv mayllar uning shaxsiyatiga zid bo‘lgan ruhiy holat sifatida ongli hayotdan siqib chiqarilsa-da, yo‘qolib ketmaydi, balki ongsizlik sohasiga o‘tkazib yuboriladi. Psixoanaliz ta‘limotining vazifalaridan biri – ongsizlik sohasidagi “kompleks”larni aniqlash va ularni anglashga yordamlashishdan iborat. Psixoanaliz namoyandalari shaxsdagi ichki ziddiyatlarni ochib berish va tushuntirish uchun “Edip kompleksi” tushunchasini yaratdi. Unga ko‘ra, o‘g‘il bolaning o‘z onasiga nisbatan jinsiy mayli va otasining o‘limini istashi (“Edip kompleksi”), yaqin qarindoshi bilan jinsiy aloqa qilishga maylligi jazolanishdan qo‘rqish hissi bilan to‘qnashadi.

Psixoanaliz vakillari shaxsning bundan keyingi taraqqiyotini ongsizlik holatiga siqib chiqarilgan instinktiv mayllarning turlicha komplekslar bilan to‘qnashuvi tashkil etadi; instinktiv mayllar o‘z quvvati va faolligini saqlagan holda insoniyat madaniyati va inson faoliyati mahsulining har xil shakllariga o‘tib (“sublimatsiyalashib”), ongsizlik holatida shaxsning xulq-atvorini boshqarishda davom etadi, degan xulosaga keladi. Psixoanalizda ongsizlik bilan onglilik o‘rtasidagi qarama-qarshi munosabatni mutlaqlashtirish holatlari uchraydi, buning natijasida ularning o‘zaro bir-birini to‘ldirish imkoniyati rad etiladi.

1998 yili institut rahbariyati menga “Tibbiyot psixologiyasi”dan darslik tayyorlashni topshirdi. Menda Z. Freydning psixoanaliz ta’limotini ushbu darslikka kiritish va uni talabalarga o‘qitish fikri paydo bo‘ldi. Ushbu ta’limotni institutning o‘quv dasturiga kiritishga muvaffaq bo‘ldim.

Obrazli qilib aytganda, psixoanalizni osmonga bo‘y cho‘zib turgan teleminoraga o‘xshatish mumkin. Ushbu minoraning bir oyog‘i – fiziologiya, ikkinchi oyog‘i – nevrologiya, uchinchi oyog‘i esa – psixologiyadir. E’tibor qilingga, ularning hammasi bir xil va teng. Minoraning osmonga bo‘y cho‘zib, quyoshga intilib turgan qismi esa – psixoanalizdir. Minoraning ushbu qismidan atrofqa qarasangiz go‘zal shahar kaftingizda turgandek ko‘z oldingizda namoyon bo‘ladi. Demak, boshqa fanlardan farqli o‘laroq, psixoanaliz inson qalbini va uning eng tubida yashirib yotgan jarayonlarni bemalol ko‘ra oladigan fan. Psixoanaliz fani o‘z oldiga ong tubida yashirib yotgan chuqur psixologik jarayonlarning sir-asrorini ochishni maqsad qilib qo‘yadi va shu yo‘l bilan nevrozni keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganadi.

Z. Freyd ta’limoti bo‘yicha alohida ma’ruza tayyorladim va uni barcha fakultet talabalariga o‘qiy boshladim. Amaliy mashg‘ulotlarda ham psixoanaliz ta’limotini talabalarga o‘rgata boshladik. Ayniqsa, psixoanalitik davolash usullari talabalarda katta qiziqish uyg‘otdi. O‘sha paytlari gipnoz bilan ham shug‘ullanib, talabalar va bemorlarga gipnoterapiya o‘tkazar edim. Biroq psixoanalitik terapiya meni shu qadar o‘ziga rom qildiki, men gipnoz bilan shug‘ullanishni to‘xtatib qo‘ydim. Qiziqqan talabalarga darsdan keyin ham psixoanalitik davolash usullarini o‘rgata boshladim. Bu usullar talabalarda katta qiziqish uyg‘otdi va juda ko‘p talabalar “Freyd hayoti va ijodi”, “Psixoanaliz ta’limoti”, “Psixonalitik terapiya” mavzularida ilmiy to‘garaklarda ma’ruzalar qila boshlashdi.

Z. Freyd 1897 yildan boshlab nevroz va seksual qoniqmaslik orasida bog‘liqliklarni sistematik tarzda o‘rgana boshlaydi. Freyd seksual qoniqmaslik g‘oyasiga shu qadar berilib ketadiki, u nafaqat nevrotik buzilishlar va xulq-atvordagi o‘zgarishlarni, balki psixosomatik simptomlarni (bosh og‘rig‘i, oyoq og‘riq, bel og‘riq, qorin og‘riq, yurak og‘rig‘i va h.k.) ham seksual qoniqmaslik bilan bog‘laydi. Buning natijasida Freyd “panseksualist” degan laqabni oladi. Undan ko‘p olimlar va hatto o‘zining ustozlari ham yuz o‘giradi. Uning maqolalarini chop qilmay qo‘yishadi.

Introektsiya – inson yoki ob`ektni simvolik internalizatsiyasi (o`ziga kiritishi). Mexanizm xarakati proektsiyaga qarama-qarshidir. Introektsiya yordamida sevgi ob`ektlari va o`zining shaxsi o`rtasidagi farqlar bartaraf etiladi. Ba`zida boshqa odamlarga nisbatan jaxl yoki agressiya o`rniga yo`q qiluvchi tuyg`ular, o`zini o`zi tanqid qilishga, o`zini qadrlamaslikka aylanadi, chunki ayblanuvchida introektsiya sodir bo`lgan. Bunday vaziyat ko`pincha depressiya holatida kuzatiladi.

Ratsionallashtirish – aslida mumkin bo`lmagan fikr, tuyg`u, xulq-atvorlarini oqlashga ishonchli sabablarni topuvchi himoya mexanizmi. Ratsionallashtirish – psixologik himoyaning eng keng tarqalgan mexanizmi, chunki bizning xulqatvorimiz ko`plab omillar orqali aniqlanadi va biz uni o`zimiz uchun ma`qul bo`lgan yo`l bilan tushuntirganimizda ratsionallashtirgan bo`lamiz. Ratsionallashtirishni ongsiz mexanizmini to`qib chiqarilgan yolg`on, firib yoki mug`ombirlik bilan aralashtirib bo`lmaydi.

“Ego” – bu “Men” degani!

Odam boshqa jonzotlardan aql-zakovat, ya`ni ongning borligi bilan farq qiladi. Demak, ong “Men” demakdir. Agar odam faqat “Id»” qonuniyatlariga bo`ysunib yashaganida edi, uning hayot tarzi hayvonlarnikiga o`xshab qolardi. Vaholanki, odam faoliyati ongli jarayon ekan, u o`z xatti-harakatlarida ham, asosan, onga tayanadi. Biroq bu xatti-harakatlarni “Id” belgilab beradi.

Psixoanalitiklar odamni, aniqrog`i, uning ruhiyatini tirik hujayraga o`xshatishadi. Bunda hujayraning tashqi pardasi “Men” bo`lsa, uning ichki tarkibi “Id”dir. Hujayraning ichida moddalar almashinuvi natijasida katta energiya to`planadi va kuchli energiyaga ega bo`lgan “Id” tashqariga yorib chiqqisi keladi. Bunga esa hujayraning tashqi pardasi, ya`ni “Men” yo`l qo`ymaydi.

Intellektualizatsiya – bu ximoya mexanizmi emotsional xis-tuyg`u va kechirmalarnin bartaraf etish maqsadida namayon bo`ladi. Intellektual zaxiralarni katta miqdorda qo`llashni taqozo etadi. Kompensatsiya yoki sublimatsiya bu real yoki hayotiy kamchiliklarni ongsiz tarzda bartaraf etish xarakati. Kompensatorlar xarakat universalidir, chunki statusini egallash deyarli barcha insonlarning istagidir. Kompensatsiya ijtimoiy yaroqli (ko`zi ojizning musiqachiga aylanishi) va yaroqsiz (bo`yi past insonni) agressivlik va xokimlikka intilishi bilan kompensatsiyalash nogironlikni qo`pollik va nizolashuvchanlik bilan kompensatsiyalash bo`lishi mumkin. Reaktiv tuzilish xursandchilik emotsiyalarini ushlab turish uchun qo`llaniladi. Bu mexanizm xarakatdagi qaramaqarshi ustanovkalarni amalga oshirishni taqozo etadi. SHu jumladan, qarashlarning mustaxkam belgilanganligi, uyatchanlik, muruvvat hamda raxmdillik va boshqalar. Himoya ikki bosqich xarakterga ega. Avval mumkin bo`lmagan istak siqib chiqariladi, so`ng uning antitezasi kuchayadi. Masalan, xaddan tashqari vasiylik rad etilganlik hissini xaddan ziyod ijobiy va muloyim xulq dushmanlikni berkitishlari mumkin va boshqalar. Reallikni rad etish bu anglanilgan

vaziyatda og'riqli bo'ladigan o'y-fikr, tuyg'u, istak, talab yoki reallikni rad etuvchi mexanizm.

Xulosa; Psixoanaliz vakillari shaxsning bundan keyingi taraqqiyotini ongsizlik holatiga siqib chiqarilgan instinktiv mayllarning turlicha komplekslar bilan to'qnashuvi tashkil etadi; instinktiv mayllar o'z quvvati va faolligini saqlagan holda insoniyat madaniyati va inson faoliyati mahsulining har xil shakllariga o'tib ("sublimatsiyalashib"), ongsizlik holatida shaxsning xulq-atvorini boshqarishda davom etadi, degan xulosaga keladi. Psixoanalizda ongsizlik bilan onglilik o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatni mutlaqlashtirish holatlari uchraydi, buning natijasida ularning o'zaro bir-birini to'ldirish imkoniyati rad etiladi. Psixoanalitik undan xayoliga kelgan barcha fikrlarini va unga azob berayotgan voqea va hodisalarni oqizmaytomizmay so'zlab berishni iltimos qiladi. Bu yerda birorta ham sir qolmasligi va bemor uyalmasligi kerak. Ma'noli so'zlarmi, ma'nosizmi, bemor ularni psixoanalitikka ochib tashlashi shart.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nodira G'ayratovna Kamilova "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" Darslik Toshkent – 2020
2. M.Otajonov "Psixoanaliz asoslari" O'quv qo'lanma Toshkent "O'zbekiston" 2004
3. Zarifboy Ubodullaev "Asab va ruhiyat" Ilmiy- ommabob risola "SHarq" Nashiryot-Matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxriryati Toshkent-2015
4. D.Oriboyeva "SHaxs psixologiyasi.Maxsus psixologiya. Iqtidorli bolalar psixologiyasi. Maruz matni Namangan-2019
5. F.I.Xaydarov, N.I.Xalolova "Umumiy psixologiya" darslik Toshkent 2016